

Jo‘rayeva Zuhra Jalol qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

jurayevazuhra2303@gmail.com

ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONNI BOSIB OLISHI VATURKISTONDA MUSTAMLAKACHILIK BOSHQARUV TIZIMINING O‘RNATILISHI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Rossiya imperiyasining XIX asrning o‘rtalarida Turkistonni bosib olish jarayoni va mustamlakachilik boshqaruv tizimini shakllantirish masalalari tahlil etiladi. Turkiston hududidagi siyosiy va iqtisodiy tanglik, o‘zbek xonliklari o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar, Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalarining geosiyosiy manfaatlari natijasida mintaqaga bosim kuchaygani yoritiladi. Rossiya imperiyasining harbiy yurishlari tafsilotlari, asosiy janglar va bosib olingan hududlar to‘g‘risidagi tarixiy manbalarga tayangan holda bayon qilinadi. Shuningdek, Rossiya imperiyasining bosib olingan yerlarda harbiy-ma’muriy boshqaruvni tashkil etish jarayoni, qabul qilingan nizomlar va mustamlakachilik siyosatining natijalari haqida ham so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Rossiya imperiyasi, Turkiston, mustamlakachilik, Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, harbiy yurishlar, siyosiy tanglik, general-gubernatorlik, harbiy boshqaruv tizimi.

XIX asming o‘rtalariga kelib Turkistondagi ikki xonlik, ya’ni Xiva va Qo‘qon xonliklari hamda Buxoro amirligida jamiyat hayotining barcha sohalari - siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hayotda tanglik yanada chuqurlashib ketdi. Taxt uchun kurash, ayrim hududlar uchun muttasil olib borilgan urushlar, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning orqaga ketishi bu davlatlarga xos xususiyatlar bo‘lib qoldi. XVI-XIX asrlarda muttasil davom etgan feodal urushlar, Buxoro-Xiva, Buxoro-Qo‘qon mojarolari, mustaqillikka intilgan viloyat hokimlari va qabila zodagonlariga qarshi olib borilgan harbiy harakatlar, chet el bosqinchilarining O‘rta Osiyo xonliklari hududlariga tajovuzlari ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotni izdan chiqardi.

Uchala o‘zbek davlatining biror bir hukmdori Turkistonni yagona bitta davlat, uning aholisini yagona bir xalq qilib birlashtirishga intilmadi. Xonliklarga siyosiy barqarorlikning yo‘qligi xos bo‘lib, buning asosiy sabablaridan biri, viloyatlar bilan markaziy hokimiyat o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, hukmron suiola vakillarining taxt uchun muttasil olib borgan kurashlari edi. Masalan, Qo‘qon xonligida 1709-1860-yillarda mobaynida 24 marotaba xon almashdi. Bu xonlardan 7 kishi o‘ldirilgan bo‘lsa, 7 nafari taxtdan chetlatildi, 6 tasi bir yilgina hukmronlik qildi [1, 10-11-b]. XIX asrning o‘rtalariga kelib, Turkiston hududlarida joylashgan o‘zbek davlatlarida murakkab siyosiy vaziyat yuzaga kela boshladi. Bu vaziyat, birinchidan, xonliklarning ichki ahvoli va o‘zaro munosabatlari bilan belgilansa, ikkinchidan, tashqi dunyo, ya’ni Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalarining bu xonliklami o‘z ta’sir doirasiga tortish uchun qilgan xatti-harakatlari bilan bevosita bog‘liq edi.

Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishga qaratilgan harbiy harakatlari 1853-yilda general Perovskiy boshchiligidagi 2500 kishilik qo‘sishin va. 17 ta to‘p bilan Oqmachit (hozirgi QizilO‘rda) qal’asiga hujumdan boshlandi. Qal’ani 400 ga yaqin himoyachi qariyb bir oy mudofaa qildi va 28-iyulda mag‘lubiyatga uchradi. Rus hukumati Oqmachit bosqini qatnashchilarining unvonlarini oshirib, orden-medallar va pul mukofotlari bilan taqdirladi.

Oqmachit o'rniga qurilgan rus qal'asiga general Perovskiy nomi berilib, «Perovskiy porti» deb ataldi. 1853-1856-yillardagi Rossiya-Turkiya urushi tufayli vaqtincha to'xtab qolgan harbiy harakatlar 1860-yil yozida yana faollahdi. Shu yilda polkovnik Summerman qo'mondonligidagi rus qo'shinlari To'qmoq, Pishpak (hozirgi Beshkek) qal'alarini egalladi. 861-yil 21- iyunda podsho Aleksandr II saroy kengashida Qo'qon xonligi hududlarini egallah zarurligini ta'kidladi. Shunga ko'ra, 1861-1863-yillar mobaynida rus qo'shinlari Yangi Qo'rg'on, Din Qo'rg'on, Merka, Oqsuv, Pishtepa, Choldevor qal'alarini bosib oldi. 1863-yilning yozida polkovnik Chemayayev boshchiligidagi rus qo'shinlari So'zoq qal'asini egalladi. Polkovnik Chemayayev boshchiligidagi 2500 kishilik qo'shin 1864-yil 4-iyunda Qo'qon xonligiga qarashli Avliyoota (hozirgi Jambul) qal'asini zabit etdi. Chemayayev Avliyoota qal'asini bosib olganligi uchun general unvoni va orden bilan taqdirlandi [2]. 1864-yil 12- iyunda polkovnik Veryovkin qo'mondonligidagi qo'shin Turkiston shahrini, general Chemayayev qo'shini 22- sentyabrdagi Chimkent shahrini bosib oldi. Rossiya imperiyasi Turkiston boshqaruvini tashkil qiiishni uni bosib olishga kirishgan damdan boshladi. 1865-yil 2-martda Rossiya hukumati Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Orol dengizidan to Issiqko'lgacha o'zbek xonliklari bilan chegaradosh hududlarda Turkiston viloyatini tashkil qildi. Turkiston viloyatining harbiy gubernatori qilib general Chemayayev tayinlandi. Turkiston viloyatining ma'muriyhududiy bo'linishi sof harbiy vazifalami hal qilishga qaratildi va uning asosini harbiy-hududiy birliklar tashkil qildi. Viloyat uch bo'limga: o'ng qanot, markaz va chap qanotga bo'lindi. Keyinchalik Sirdaryo rayoni nomini olgan o'ng qanotga Aralsk, 1-fort (keyinchalik Kazalinsk deb nomlandi) va Perovsk; markazga Turkiston va Chimkent hududlari; chap qanotga Avliyoota, Marke va Pishpak qal'alarini kiritildi. Viloyatning ma'muriy markazi qilib Chimkent shahri belgilandi. Turkiston va Chimkent shaharlari bosib olinishi natijasida rus qo'shinlarining harbiy harakatlari yanada kengaydi va O'rta Osiyoning eng katta shaharlaridan biri bo'lgan Toshkentni bosib olishga keng yo'l ochildi. General Chemayayev Toshkentni egallah uchun ikki marta harbiy harakatlami amalga oshirdi. Birinchi bor 1864-yil 2-oktabrda Toshkent uchun qilgan hujumi muvaffaqiyatsizlikka uchradi va u Chimkentga qaytishga majbur bo'ldi. Chemayayev Toshkentni egallah uchun ikkinchi bor harbiy harakatlarini boshlab, 1865-yilning 28-aprelida Niyozbek qal'asini egalladi va shahar aholisini suvsiz qoldirdi. 1865-yilning 9-mayida Chemayayev Toshkentga qayta hujum boshladi. Toshkent ruslar tomonidan 42 kunlik qamaldan keyin egallandi, Shahar oqsoqollari 17-iyunda sulk tuzishga majbur bo'Mdilar. 1865-yilning 15-sentabriga kelib rus qo'shinlari Toshkentdan tashqari Niyozbek, Chinoz va Piskentdagi Kelovchi qo'rg'onini egalladi [3]

Rus harbiy qo'shini 1866-yil 12-oktabr kuni Jizzaxga yetib keldi. Jizzax himoyachilarining soni 10.000 kishidan iborat bo'lib, ulaming qo'lida 53 ta to'p mavjud edi. 16-18-oktabr kunlaridagi qattiq janglardan keyin himoyachilar mag'lubiyatga uchradi. 1866-yilda Turkiston viloyati tarkibida Yerjar va Zomin bo'limlari, O'rtepa va Jizzax rayonlari tashkil qilindi [4,30-b]. Rossiya imperiyasi Turkistonda keng istilochilik harakatlarini boshlar ekan, xududiy egalik ko'lamiga doir tayyor puxta rejaga ega emasdi. Binobarin, bosib olingan yerlarda boshqaruvni tashkil qilish bilan bog'liq tayyor loyihamar ham yo'q edi. Xatto XIX asrning 60-yillari boshlarida ham markazi Toshkentda bo'lgan - Alovida Qirg'iz cho'li general-gubernatorligi ni tashkil qilish haqidagi xom takliflar xukumat doiralarida nomaqbul deb hisoblab kelinardi. Shunday bir sharoitda Turkiston viloyatining ma'muriy qurilishini tartibga solishga qaratilgan meyoriy hujjatlarni ishlab chikqish tashabbusi Rossiya imperiyasi harbiy qo'mondonligi qo'liga o'tdi. Shu mazmundagi birinchi hujjat Yangi Qo'qon liniyasi qo'mondoni

M.G.Chernyayevning shtabida ishlab chiqilib, Peterburgga -O'rta Osiyo chegara viloyati haqidagi Nizom loyihasi ko'rinishida taqdim etildi. Bu loyiha imperiya harbiy vazirligida qayta ishlandi va 1865 yilning 6 avgustida podsho Aleksandr II Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat Nizom" ga imzo chekdi [5]. Ushbu qonunchilik hujjatida hokimiyatni tashkillashtirish tizimi Kavkazorti xududidagi singari-harbiy-xalq boshqaruvi :deb yuritildi

[6,32-b]. 1867 yil 11 iyulda imperator Aleksandr II Turkiston harbiy okrugini ta'sis etdi va O'rta Osiyoda bosib olingan va sultanat tarkibiga kiritilgan hududlar hisobidan Turkiston general – gubernatorligi tashkil qildi. Ushbu gubernatorlikning markazi Toshkent bo'lib, uning tarkibiga Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari ham kirgan edi. Birinchi general – gubernator va okrug qo'mondoni qilib general – ad'dyutant K.P. fon Kaufman (1818 – 1882) tayinlandi. Turkiston general-gubernatorligida joriy qilingan boshqaruv usuli mahalliy aholi ustidan to'la nazorat qilish imkonini bera oladigan tarzda qilib tashkil etilgan edi. Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yicha ilk dasturiy hujjatlarning ishlab chiqilishida -harbiy vaziyatl omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lди. Ular yangi xududlar bosib olinishi bilan yuzaga kelgan va qoida tarzida —muvaqqat xususiyatga ega edi. Chunonchi, -Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridagi boshqaruv to'g'risidagi nizom" 1867 yili-tajriba tarzida uch yilga joriy qilindi. Undan tashqari, 1868 yilning iyunida -Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari", -Farg'ona viloyatini boshqarish bo'yicha 1873 yil muvaqqat nizom", -Amudaryo bo'limini boshqarish bo'yicha 1874 yil 21 may nizomi" ham ishlab chiqilib, qabul qilingan edi [7,44-b].

Viloyatlar o'z navbatida uezdlarga bo'lib boshqarilgan. Uezdlar uezd boshliqlari tomonidan idora etilgan. Sirdaryo viloyati Toshkent, Avliyoota, Kazalinsk, Perovsk, Chimkent: Farg'ona viloyati Marg'ilon, Andijon, O'sh, Qo'qon, Namangan: Samarqand viloyati Jizzax, Xo'jand, Samarqand: Yettisuv viloyati Verniy, Kopal, Lersin, Pishpak, Prjevalsk: Kaspiyorti viloyati Ashxobod, Krasnovodsk, Mang'ishloq, Marv, Tajan, uezdlariga bo'lingan. Uezdlar uchastkalarga bo'lib idora qilingan

Xulosa qilib aytganda XIX asrning o'rtalariga kelib, Turkiston hududida mavjud bo'lgan o'zbek davlatlarining ichki nizolari va o'zaro urushlari ularning harbiy va siyosiy jihatdan zaiflashuviga olib keldi. Bu holat Rossiya imperiyasi uchun mintaqani bosib olishda qulay sharoit yaratdi. 1853-yildan boshlangan bosqinchilik harakatlari 1865-yilda Toshkentning egallanishi va 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi bilan mustamlakachilik boshqaruvi joriy etilishiga yo'l ochdi. Rossiya imperiyasi bosib olingan hududlarni ma'muriy-harbiy birliklarga bo'lish orqali ularni o'z nazorati ostida saqlashga intildi. Ushbu jarayon mahalliy aholi uchun katta yo'qotishlarga sabab bo'lib, ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan o'zgartirdi. Natijada Turkiston Rossiya imperiyasi tarkibiga mustamlaka sifatida kiritildi va bu mustamlakachilik siyosati uzoq yillar davom etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. R.E.Xoliqova. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. O'quv qo'llanma. - Т.: "Fan va texnologiya", 2017,164 b
2. A. N. Kurat. "Russkoe zavoevanie Sredney Azii". Moskva, 1958.
3. B.Babajanov. "Turkiston mustamlaka tuzumi ostida". Toshkent, 1992.
4. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистанда чор мустамлака тизими. Тошкент, - Академия 2002 й. 30-б
5. Собрание узаконений и распоряжений, издаваемое при Правительствующем Сенате. Спб. Пг., 1863-1917, 1 бўлим, 7-hujjat, 1865 й.
6. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистанда чор мустамлака тизими. Тошкент, - Академия 2002 й. 32-б.
7. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф.Р. Туркистанда чор мустамлака тизими. Тошкент, - Академия. 2002 й. 44-б